


TAFAKKUR ZIYOSI

Tafakkur ziyosi 1/2024
ilmiy uslubiy jurnal



Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz.

Farzandlarimizni hartomonlamabarkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyparvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Shavkat Mirziyoyevning "Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi"dan

BOSH MUHARRIR
Shavkat Safarovich Sharipov –
pedagogika f.d., professor

MUHARRIR O'RINBOSARI
Farrux Aqchayev – tarix f.f.d.,
dotsent

MAS'UL KOTIB
Abdug'affor Abdurahmonov – tarix f.b.f.d. PhD

TARJIMONLAR:
Zubayda Jumayeva-filologiya
f.b.f.d., dotsent (rus tili bo'yicha)

Eldar Hasanov-filologiya
f.b.f.d. (rus tili bo'yicha)

Anora Jabborova -filologiya
f.b.f.d., (ingliz tili bo'yicha)

Dildora Baxriddinova - katta
o'qituvchi (ingliz tili bo'yicha)

Musahhihlar
Feruza Jumayeva- filologiya f.b.f.d.
dotsent.

Murodulla Jo'rayev-
filologiya f.b.f.d.

SAHIFALOVCHI
Zarina Abdusattorova

Muassis - Jizzax davlat
pedagogika universiteti
Jurnal yilda 4 marta
(har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalanilgan iqtibos
va ma'lumotlar aniqligi uchun
mualliflar mas'uldirlar.

Jurnaldan ko'chirib olinganda,
manba qayd etilishi shart.

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Anatoliy Sagdullayev, tarix f.d., akademik
Komiljon Tojiboyev, biologiya f.d., akademik
Andrey Zuyev, Novosibir DU Gumanitar instituti professori, tarix f.d.
(Rossiya)
Stiven Korbet, Portsmud universiteti, Tillar va amaliy tilshunoslik
yo'nalishi professori (Buyuk Britaniya)
Seyko Wazake, Chibu universiteti doktori (Yaponiya)
Donina Lyudmila, Sank-Peterburg DU dotsenti, filologiya f.n.
(Rossiya)
Jakelin Douglas, Norwich tillar o'qitish instituti professori (Buyuk
Britaniya)
Himmat Karadal, Izzet Baysal universiteti professori (Turkiya)
Tuba Yilmaz, Nejmiddin Erbakan universiteti professori (Turkiya)
G'ayrat Qodirov, biologiya f.n., dotsent
Botir To'xtamishev, texnika f.n., dotsent
Sarvar Nazarqosimov, sotsiologiya f.b.f.d., dotsent
Qozoqboy Yo'ldoshev, pedagogika f.d., professor
Usmonjon Qosimov, filologiya f.d., professor
Abdug'affur Mamatov, filologiya f.d., professor
Umrzoq Jumanazarov, filologiya f.d., professor
Faniya Axmedshina, tarix f.d., professor
Baxti Ochilova, falsafa f.d., professor
Hamid Meliyev, pedagogika f.n., professor
Xudoybergan Mavlonov, biologiya f.d., dotsent
Qo'chqor Hakimov, geografiya f.n., professor v.b.
Mo'min Hoshimxonov, falsafa va filologiya f.d.
Furqat Axmedov, pedagogika f.n., professor
Akbar Saitkasimov, falsafa f.d., professor
Zuhra Yaxshiyeva, kimyo f.d., professor
Abdunazar Nurmonov, pedagogika f.d., professor
Rustam Abdurasulov, psixologiya f.d., dotsent
Marat Sultonov, kimyo f.d., professor
Raximboy Yarmatov, pedagogika f.d., dotsent
Ilyos Islamov, tarix f.d., dotsent
Muxtorqul Pardayev, tarix f.n., dotsent
Rabbim Yusupov, texnika f.n., dotsent
Oleg Kim, filologiya f.n., dotsent
Abduvali Shamshiyev, iqtisod f.n., dotsent
Yulduz Karimova, filologiya f.n., dotsent
Kamoliddin Zoyirov, pedagogika f.n., dotsent
Sherali Abduraimov, pedagogika f.b.f.d., dotsent
Feruza Jumayeva, filologiya f.b.f.d., dotsent
Bobomurod Toshboyev, falsafa f.b.f.d., dotsent

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya,
falsafa va pedagogika fanlari bo'yicha ekspert kengashi (2018-yil 29-dekabrda 260/6-son bayonnomasi)
tavsiyasi bilan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042
raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181- 6131**

MANZIL: 130100, Jizzax shahri,
Sh. Rashidov ko'chasi, 4-uy, bosh bino
TELEFON: (99872) 226 02 93,
(99897) 644 84 44
FAKS: (99872) 226 46 56

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
TAHRIRIY-NASHRIYOT BO'LIMI
Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy
2024-yil 25-mart kuni bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi A4 Buyurtma: ____
Nashr adadi: 100

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT MINBARI

Sh.S.Sharipov., S.T.Yaxshiliqov. Oliy ta'limga sun'iy intellektni joriy etish zaruriyati: tarixiy asoslar va zamonaviy tendensiyalar.....	4
--	---

TAQVIM:

U.Qosimov., D.Elmuradov. Tilimiz va adabiyotimizning benazir yalovbardori.....	7
---	---

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

V.Q.Raxmonova. Uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlashning pedagogik muammolari	10
X.R.Sanakulov., G.O.Abduraimova., Sh.Y.Ishmetova. Boshlang'ich ta'limda "STEAM – ta'limi" yondashuvi asosida "texnologiya" fanini o'qitishning asosiy pedagogik tamoyillari	13
X.A.Meliyev., R.X.Bo'ltakova., Sh.B.Qosimova. Oliy ta'limda STEAM ta'lim tizimini tashkil etish va uning imkoniyatlari	19
M.X.Shomirzayev. Oliy o'quv yurtlari talabalarida texnologik kompetentlikni rivojlantirishning klasterli modeli	21
R.T.Umarov., J.B.Orishev. Mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlari.....	25
A.B.Musoyeva. Tadqiqot kompetensiyasini oshirish bo'yicha AQShda orttirilgan tajriba va uni amaliyotga joriy etish.....	28
U.S.Musayev. Yaponiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarining innovatsion tomonlari: qiyosiy tahlil.....	32
L.A.Xalmamatova. Pedagogik texnologiyani loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llari.....	36
A.J.Usmanov. Axborot texnologiyalariga oid bilimlarga asoslangan ta'lim raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omilidir	39
A.M.Mirzaakbarov. IQ (intelligence quotient) masalalarini yechishga o'rgatish orqali bo'lajak o'qituvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	43

AMALIY FANLAR

I.Jumaniyazov. Baxshi va jirovlarning asosiy cholg'u asboblari.....	46
N.O.Berdiyev. Bo'lajak arxitektor va dizaynerlar faoliyatida grafik tasvirlashning o'rne va ahamiyati	48
S.R.Xalikov. Yashil institut tuzilmasini yaratgan, ekologik toza va barqaror arxitektura loyihalari asoschisi Kisho Kurokava hayoti va ijodi.....	53
B.E.Qodirov. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining mustaqil ta'limini tashkil etish imkoniyatlari.....	57
K.T.Mухамедзиянов. О вокальном цикле "Сюзане" композитора Г. Мушеля на стихи узбекской поэтессы Зульфии Исраиловой	60
E.Z.Nurmatov. Talabalarni ommaviy jismoniy tarbiya va sportga jalb etish mexanizmlarini xorij tajribalar asosida takomillashtirish	63

IJTIMOY FANLAR

A.Saitkasimov., A.Idiboyev. Yangi O'zbekistonda inson manfaatlari va qadr-qimmatini ustuvorligini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari	68
T.M.Burxanov. Harbiy-kasbiy qadriyatlarni rivojlantirishda bo'lajak ofitserlarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishning o'rne	71
Ф.А.Ахмедшина. Халыль туризм: новая концепция туристского бизнеса в мире и Узбекистане	76
A.X.Amonlayev. Ibrat kategoriyasi shakllanishining ijtimoiy-falsafiy tahlili	80
X.E.Boboqulova. Falsafiy dunyoqarash dunyoqarashning eng yuqori turi sifatidagi mantiqiy tushuncha..	83
A.Boltayev. Sovet tuzumi davrida O'zbekistonda sud tizimining shakllanishi va rivojlanish tarixi.....	88
D.U.Jumanazarova. Axloqiy madaniyat va shaxs ma'naviyati tushunchalarining ijtimoiy-pedagogik tavsifi.....	91
Z.A.Bozorboyeva. Demografik o'zgarishlar va ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik muammolar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tamoyillari.....	94
B.S.Turdiyev. Jamiyat ideosferasida milliylik va umuminsoniylik dialektikasi	98
R.R.Nurqulova., A. Abdurahmonov. Movarounnahrda shayboniylar hukmronligining o'rnatilishida Muhammad Shayboniynonning tutgan o'rne	102
S.U.Kistaubayev. Amaliyot va texnologiya darslarida bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik	



bilimlarini oshirish usullari.....	106
N.E.Tog'ayev. Islom dinining xalqimiz ma'naviyati va madaniyati rivojida tutgan o'rni.....	109

FILOLOGIYA FANLARI

F.R.Ravshanov. Qissanavis shoir Shoh Hakim Xolis Toshkandiy (Farg'oniy)ning hayoti va ijodi.....	113
A.C.Mусаев. О качестве переводов русских слов и фразеологизмов на узбекский язык.....	117
N. D. Hasanov. Masnaviy va Mabdal nur.....	119
G'.O.Xolbutayev. Kulgiga asoslangan folklor janrlarning o'rganilishi.....	124
X.Xolmurodov., U.Mustanov. Alisher Navoiy she'riyatida ishqi obrazlar muvoziyligi.....	127

N.Q.Bo'riyeva. Jon Ronald Ruel Tolkin asarlarining zamonaviy intertekstda aks etishi.....	130
A.L.Kenjayeв. A.S.Pushkinning "... ga" she'ri tahlili.....	134
З.Ш.Жумаева. Структурно-семантические типы фразеологизмов.....	137
J.A.Lutfullayev. "Mungli ko'zlar" romanining mavzu ko'lami va tasvir uslubi.....	139
D.E.Kariyeva. Teaching english vocabulary to students of economic universities.....	144

TABIIY VA ANIQ FANLAR

G.I.Sayfullayeva., M.H.Norqulova. Astronomiya darslarining samaradorligini oshirishda interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish.....	148
M.R.G'o'dalov., N.D.Qosimov. Sangzor havzasida tarqalgan tuproq turlari va ularning xususiyatlari.....	152
F.P.Raxmonkulov. O'quv jarayonini tashkil etishda onlayn xizmatlardan foydalanish.....	155
P.P.Кучкарова. Кольчато -цепных перегруппировках лигандов при комплексообразовании с ионами переходных металлов.....	158
F.Q.Tugalov. Fizika va biologiya fanlari integratsiyasi.....	162
S.S.Alikulov. Maktab fizika kursida robototexnika asoslarini o'rganish.....	164
H.T.To'rayeva. Organik kimyoni klaster usulida o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	168

YOSH TADQIQOTCHILAR

O'.H.Mavlonova. Xushmuomalalik me'yorlari va urfga kirgan odatlar.....	173
X.A.Usmanova. O'zbek she'riyatida ramzlar tasnifi.....	180
K.X.Abduvaliyeva. Kimyoviy masalalar yechish usullaridan foydalanishning ahamiyati.....	184
Sh.R.Bobobekov. Kiberhujum va uning salbiy ta'sirlarini oldini olish yo'llari.....	187
Sh.A.Jo'rayev. Erkin Vohidov so'z olami va ijod saboqlari.....	192
G.B.Nafasova. Praxeological approach to development of logical competence of future physics teachers.....	195
M.B.Qodirova. Hurmat ma'nosini ifodalovchi so'zlarning ingliz tiliga tarjimasida.....	199
Sh.N.Avazbekova. O'quvchilarda zamonaviy integrativ metodlar asosida ilmiy xabardorlik kompetensiyasini rivojlantirish.....	203
A.A.Yakunina. Проблема определения термина концепт в современной лингвистике.....	206
M.Ш.Яхшиева. Занятия аэробикой и её всестороннее влияние на организм студентов.....	211
F.X.Dadaboyeva. O'quvchilarga ingliz tilini o'qitish jarayonida og'zaki nutqni shakllantirishning nazariy asoslari xususida.....	215
R.I.Rasulova. Ekologik ta'limning samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	220
Y.A.Ismatillayeva. Ekologik tarbiyaga oid tarixiy materiallardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari.....	223
O.Ф.Ахмедов. Формирование межнациональной культуры в начальных классах.....	227
M.Sh.Shotirova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirishda tarbiya fanining o'rni.....	231
G.X.Norbekova. Afsun va unga oid birliklarning madaniyatlar kesishuvidagi o'rni.....	235
Sh.T.Mirzamatoва. O'quvchilar shaxsiyatining psixologik xususiyatlari orqali kimyo fani bo'yicha bilimlarni optimallashtirish.....	239
Z.Yulchiyeva. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida ta'limiy o'yinlardan foydalanish... ..	241



ISLOM DININING XALQIMIZ MA'NAVIYATI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI

Nodirjon Ergashevich Tog'ayev – dotsent, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muqaddas dinimiz hamda ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish, ularni xalqimizning, ayniqsa, yoshlarimizning ma'naviy yuksalishida tugan o'rni va ro'li bayon etilgan. Shu bilan birgalikda bizning boy ma'naviy merosimiz xalqimizni pokizalikka, ilmi, imonli, e'tiqodli, vijdonli va insofli bo'lishga da'vat etgan hamda o'dob-axloq va ta'lim-tarbiyaga oid pand-nasihatlar va o'g'itlarimiz xalqimizni, ayniqsa yosh avlodni illatli va qabih yo'llardan qaytarishda, shubhasiz o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatishi yoritib berilgan.

Аннотация: Данная научная статья обращается к важности глубокого изучения религии и научно-духовного наследия предков, а также их роли в духовном развитии народа, особенно молодежи. Автор подчеркивает, что богатое духовное наследие призывает народ быть чистым, знающим, верным, совестливым и честным, а также предлагает советы и наставления по манерам и воспитанию, которые вдохновляют молодое поколение отвергать зло и злые пути. В статье акцентируется важность сохранения и передачи этого наследия, чтобы обогатить духовную жизнь народа и способствовать его моральному развитию.

Abstract: This scientific article addresses the importance of a deep study of the holy religion and the scientific and spiritual heritage of the ancestors, as well as their role in the spiritual development of the people, especially youth. The author emphasizes that the rich spiritual heritage encourages the people to be pure, knowledgeable, faithful, conscientious and honest, and also offers advice and instructions on manners and education that inspire the younger generation to reject evil and evil ways. The article emphasizes the importance of preserving and transmitting this heritage in order to enrich the spiritual life of the people and contribute to its moral development.

Kalit so'zlar: islom dini, Qur'oni Karim, Hadis, imon, e'tiqod, halollik, ma'naviy meros, qadriyat, yoshlar, dunyoqarash, o'dob-axloq, ta'lim-tarbiya, tinchlik, farovonlik.

Ключевые слова: религия ислам, Коран, хадис, вера, честность, духовное наследие, ценность, молодежь, мировоззрение, нравы, образование, мир, процветание.

Keywords: islam religion, Koran, hadith, faith, honesty, spiritual heritage, value, youth, worldview, morals, education, peace, prosperity.

Jahon ilmi va ma'rifati tarixida insoniyatning madaniy rivojlanishida, o'zligini anglashida, komillikka yetishishida diniy-falsafiy tafakkurning o'rni katta bo'lib, bu jarayonda insoniyat tamaddunining har bosqichida yuksak e'tirof etilgan jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy maktablar muhim o'rin tutadi. Bu esa, o'z mazmuni ta'sir ko'rsatuvchi kuchiga qarab insoniyatni birlashtiruvchi, uni ezgu maqsadlar sari safarbar etuvchi, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy qadriyatlarni vujudga keltiradi.

Hozirgi kunda madaniyatimiz rivojlanishida islom dinining o'rni katta ahamiyatga ega. Islom dini insonlar hayotida

muhim ahamiyatga ega bo'lgan ba'zi murakkab ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalarni bajaradi. Hususan, u aholini eng oily ruhiy, ahloqiy va ma'naviy merosdan baxramand qilishga xizmat qiladi. Ayni paytda har bir din qatori islom dini ham turli urf-odat, marosim va bayramlar yordamida o'z qavmi turmushini tartibga solish, nazorat qilishga xizmat qiladi. Shu sababdan Islom dini va Hadis ilmi asrlar davomida mamlakatimizdagi tinch-osoyishta farovon hayotimizni ta'minlashda hizmati beqiyos.

Islom dini mintaqamiz xalqlari hayotiga kirib kelishi, uning qadriyatlari odamlar ongi va shuuri, turmush tarzidan o'rin olishi bilan shaxs ma'naviyatining shakllanishi va

yuksalishida yangi bosqichni boshlab berdi. Chunki "...din o'z mazmun-mohiyati bilan azaldan jamiyat taraqqiyotiga, kishilarning tafakkuri va ma'naviyatiga, shu jamiyatga xolisona xizmat qiladigan ma'naviy komil insonlarni tarbiyalashdek sharaflı ishga xizmat qilib kelgan"¹. Haqiqatdan ham, islom dinining xalqimiz ma'naviyati va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shib kelayotganligini ko'pchilik tadqiqotchilar e'tirof etmoqdalar.

Movrounnahrga VIII asrda kirib kelishni boshlagan Islom dini VIII–X asrlarda o'zining yuksak darajadagi ilmiy rivojlanish bosqichini o'tadi. Islom ilmlari Movarounnahr ulamolari tomonidan rivojlantirilib, o'zining eng yuqori cho'qqisini egalladi. Markaziy Osiyo xududiga keng tarqala boshlagan islom dini, uning ta'limotlari asosida dunyoga kelgan ma'naviy madaniyat hozirgi kunga qadar ardoqli bo'lib qolmoqda. So'nggi vaqtlarda islom keng tarqalgan joylardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda va umuman jahon hamjamiyati hayotida islom omilining faollashuvi ko'zga tashlanmoqda. Islom omilidan g'arazli maqsadlari sari foydalanishga, ushbu dinni dunyo xalqlari hayotidagi o'rnini pasaytirishga va unga nisbatdan turli munosabatlarning shakllanishiga turtki berayotgan holatlar yuz berayotgan bo'lsa, O'zbekistonda mustaqillik sharofati bilan islomiy qadriyatlar tiklanib uning jamiyat ma'naviy taraqqiyotidagi o'rniga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birgalikda O'zbekistonda boy tarixiy ma'naviy merosni tiklash, milliy o'zlikni anglash, fuqarolar ongi va tafakkurida milliy g'urur va iftihar tuyg'ularini shakllantirish va yuksaltirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviy meros xalqning muqaddas xotirasi bo'lib, unda xalq yoki millatning insoniyat sivilizatsiyasi tarixiy taraqqiyotida tutgan o'rni va mavqeyi belgilanadi. O'zbekistonda ma'naviy meros va milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirishga nisbatan aksiologik yondashuv shakllantirilgan bo'lib, ma'naviy merosni qadriyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilish har bir muayyan qadriyatning taraqqiyotdagi o'rnini to'g'ri baholash imkoniyatini beradi. "Hozirgi kunda O'zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to'liq o'rganilmagan, ular olimlar va o'z o'quvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlarda bugungi davr o'rtaga qo'yayotgan juda ko'p dolzarb muammolarga javob topish

mumkin"².

Ayni vaqtda diniy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasiga, ular dunyoqarashining shakllanishiga ta'siri ham hisobga olinishi tabiiy. Din va diniy e'tiqod insonning ruhiy ehtiyojlarini qondirsa, ilm-fandagi kashfiyotlar odamlarning ijtimoiy-axloqiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. O'zbekiston qadimdan ko'p konfessiyali hududlardan hisoblansa-da aksariyat xalq islom diniga e'tiqod qilib kelgan. Bunda islomiy qadriyatlar bilan birgalikda milliy qadriyatlar yonma-yon yashagan, hattoki, ayrim hollarda uyg'unlashib ham ketgan. Bizning hududimizda islomdan tashqari boshqa dinlar (zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik) ham mavjud bo'lib, ularning din sifatida faoliyat ko'rsatishi, qadriyatlariga amal qilish islom tarqalgandan keyingi asrlarda ham davom etgan.

Islom dini nafaqat aqida, balki u avvalo ilmdir. Islom dini insoniyat tarixida keng ma'noda ma'rifat, madaniyat vujudga keltirdi, ilm-fan, falsafa va san'atni rivojlantirdi, o'ziga xos ma'naviyat va ma'rifatni yaratdi. Hadislarda xalq o'rtasida ilmu-ma'rifatni targ'ib va tashviq qilishda olimlarning mas'uliyati masalasiga ham e'tibor qaratilgan. "Olimlar xalq orasidagi Allohning omonatini xalqqa yetkazuvchi kishilardir"³, deyiladi hadislarda. Inson doimo ilmga intiladi, hayotning sir-asrorlarini faqat ilm orqali bilib oladi. Ilm olishga rag'bat islom dunyosida juda keng targ'ib qilinadi. "Ilmda bahillik bo'lmaydi", degan hadisda inson o'z ilmini boshqalarga o'rgatishi zarurligi masalasiga e'tibor qaratiladi.

Ma'lumki, o'rta asrlarda islom dini musulmon jamiyati, davlati, ummatining siyosiy va madaniy, ijtimoiy, axloqiy va huquqiy munosabatlari tartibi, meyorı, diniy va dunyoviy qadriyatlari, siyosiy va huquqiy, diniy asoslarining shakllanishiga katta imkon yaratib berdi. Ayni paytda uning insonparvarlikka yo'g'rilgan g'oyalari asosida shakllangan va buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosida aks etgan ilmiy, axloqiy qarashlar butun insoniyat ijtimoiy ma'naviy hayotiga beqiyos hissa qo'shdi. Bu jarayonda Markaziy Osiyo, jumladan Turkiston mutafakkirlari islom diniga oid ta'limotlar, Quroni Karimni o'rganish va Hadis, Tafsirchilik, shariat qonun qoidalarini, nazariyoti va amaliyotini ishlab chiqish, hattotlik, qorilik kabi bir qator ishlarni amalga oshirdilar. O'rta va yaqin Sharq xalqlari umuminsoniy madaniyatining, umuman o'rta asr arab musulmon jamiyatining ijtimoiy, milliy,

1 Уватов У. Иймон нури. – Т.: "Ёзувчи", 1996. Б. 4.

2 Ўзбекистон республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. "Халқ сўзи", 2017 йил 23-декабрь.

3 Юз бир ҳадис ва унинг шарҳи. – Тошкент: "Меҳнат", 1991. Б. 27.



madaniy bir butunligi Qur'oni Karim, Hadisi Sharif va Hidoya muqaddasligi suralar, oyatlar, hadislar va Shariat ko'rsatmalarida o'z askini topgan. Ayniqsa hazrat Imom al-Buxoriyning ijodiy merosi butun musulmon olamiga, butun insoniyat axloqiy-ma'naviy olamini boyitishga katta hissa qo'shdi. Shu asosda "Sharqda Qur'on va hadislar, shuningdek obro'li e'tiborli din arboblarning, faylasuflar, olimlarning nim sinovidan o'tgan, umuminsoniy qadriyatlarni o'zida aks ettirgan fikrlari ijtimoiy hayot masalalarini hal qilishda, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda eng ishonchli, e'tiborli, nufuzli manba hisoblangan"⁴.

Bugungi dunyoda muqaddas islom dinini niqob qilib, yovuz maqsadlarini amalga oshirishga intilayotgan oqimlar ko'payib borayotgan bir paytda dinimizning asl mohiyatini xalqimizga tushuntirish, buyuk allomalarimiz ma'naviy merosini o'rganish dolzarb vazifalardan biridir. "Biz bu mutafakkirlarimizning qutlug' merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham bahramand bo'lishiga, ularning mana shunday ma'naviy muhitda kamol topishga, Islom dinining insonparvarlik falsafasi, buyuk g'oyalari yosh avlod yuragidan ham joy olishiga sharoit yaratmoqdamiz. Boshqacha aytganda, biz farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy o'g'itlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilmoqdamiz"⁵.

Hozir ham bir qator islom qadriyatlari o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ma'naviy va moddiy hayotning turli sohalarida islom nuri ila yo'g'rilgan qadriyatlar izchillik bilan saqlanib, davom etib kelmoqda. To'ylaru ma'arakalarda, turmushning turli onlarida xayrli an'analar ko'pincha Qur'on suralari, oyatlari, hadis namunalari orqali odamlar qalbidan o'rin olmoqda. Bunday ehtirom o'tmish avlodlari urf-odatlariga sadoqat ramzi sifatida qabul qilinmoqda va ardoqlanmoqda. Oddiy xalq - ziyoli ham, ishchi ham, dehqon ham faqat tinchilik va hayot farovonligini orzu qiladi. Buni amalga oshirishda esa asriy ezgu aqidalar, qadriyatlar timsoli bo'lgan islom an'analari ham ma'naviy va amaliy yordam beradi.

"Imom Buxoriy va Burhoniddin Marg'inoniy, Hakim Termiziylar, Mahmud

Zamaxshariy va Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy va Ahmad Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi ko'plab daholar nomi jahon sivilizatsiyasi tarixida oltin harflar bilan bitilgan... Ularning hayoti va ma'naviy merosini keng o'rganish va hayotga tadbiiq etishda bugungi kunda ham insoniyat katta ehtiyoj sezmoqda"⁶.

Keyingi o'n yilliklar davomida islom va siyosat, islom va demokratiya, zamonaviy davlatlarning siyosiy tizimida islomning o'rne va islom ta'limotining musulmon davlatlari hayoti bilan bog'liq boshqa muammolar chuqur o'rganilishi talab etiladigan hozirgi kunning dolzarb muammolari qatoriga chiqdi. Shuningdek qadimdan bugungi kunga qadar Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy dini bo'lib kelgan islom mintaqa ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Islom dini nafaqat bizning mintaq, balki dunyodagi millionlab kishilar hayotining turli sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuning uchun islom tarixi, islomning musulmon mamlakatlari tarixidagi o'rne va roli, islom ilmlarining rivojlanish bosqichlari, islom huquqining huquqiy va siyosiy tizimlarning shakllanishiga ta'siri ilmiy va amaliy nuqtai nazardan o'rganilishi nihoyatda katta ahamiyat kasb etmoqda"⁷.

Islom olamida "muhaddislar sultoni" deb ulkan shuhrat qozongan Imom Ismoil Buxoriyning "Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo'minga farzdir"⁸. Shariatda farz amallar har bir musulmon uchun albatta bajarilishi zarur bo'lgan amallar bo'lib hisoblansa, islom dini har bir insonni ilm olishga da'vat etadi. Ilm olishning ibodatdan afzalligi to'g'risidagi fikr esa insonni doimo ilm olishga, dunyoqarashini kengaytirishga, adolatli jamiyat qurib farovon yashashga da'vat etadi. Umuman olganda Islom dini insonni doimo ilm olishga da'vat etuvchi diniy ta'limot bo'lib, Qur'oni Karimda "ilm" so'zi - "alima"- bilmoq tarzida 750 marta uchrashi ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlab o'tilgan⁹. Dinning asosini imon va e'tiqod tashkil etadi. Ilm oliyanob va savobli ish bo'lib, islom dinida ilm olish ibodat va taqvodan afzal deb hisoblanadi. Chunki ilm dinning asosini, ustunini tashkil etib, ma'naviy merosimizda

4 Носирхўжаев С.Х., Лафасов М.Ф., Зарипов М.З. Маънавият асослари. – Тошкент: "Шарқ", 2005. Б 158.

5 Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. - Т.:Ўзбекистон, 1999. Б 336.

6 Президент Ш.М.Мирзиёевнинг 2016 йилнинг 18-19 октябрь кунлари Тошкентдаги Симпозиумлар саройида "Таълим ва маърифат – тинчлик ва бунёдкорлик йўли" мавзусида бўлиб ўтган Ислам ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатларнинг Ташқи ишлар вазирлари кенгашининг 43-сессиясида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи, 2016 йил, 19 октябрь.

7 Тарихий манбашунослик муаммолари. Илмий-амалий анжуман материаллари. (2013 йил, 25 апрел). -Т.: ЎзМУ, 2013. Б. 276.

8 Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. – Тошкент: "Фан", 1990. Б. 32.

9 Носирхўжаев С.Х., Лафасов М.Ф., Зарипов М.З. Маънавият асослари. – Тошкент: "Шарқ", 2005. Б 158.



“ilmi kalom”, “ilmi rivoyat”, “ilmi tavhid”, “aqida ilmi” kabi diniy ilmlar bilan birga, insonning dunyoni aql yordamida bilishiga asoslangan “ilmi hikmat” yoʻnalishi paydo boʻlib, dunyoviy ilmlarning rivojlanishiga bevosita oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Umuman islomda ilm-fanni egallash, maʼrifatli boʻlish juda savobli ekanligi qayta-qayta taʼkidlanib, hadislarida “Beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozimligi” qayd qilinishining oʻzi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Hadislarida inson yoshlikdan ilm olishga daʼvat etiladi. “Yoshlikda olingan bilim toshga oʻyilgan naqsh kabi”¹⁰, hadisida ushbu masalaga asosiy eʼtibor qaratilgan.

Mustaqillik sharofati oʻlaroq oʻzbek falsafasining tarixini oʻrganish bilan bir qatorda bobolarimiz yaratgan boy maʼnaviy meros, xalqimizning dunyoqarashi va falsafasi bilan bogʻliq mavzularni chuqur tadqiq qilish imkoniga keng yoʻl ochildi. Istiqloq sharofati bilan Buxoriyning oʻlmas merosi el-yurt bagʻriga qaytdi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim boʻyicha 1225-yilligini nishonlash toʻgʻrisida” gi qarori (1997-yil 29-aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini oʻrganish va targʻib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. “1998-yil 23-oktabrda Samarqandda yubiley toʻy-tantanalari boʻlib oʻtdi. Alloma abadiy qoʻnim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlogʻida ulkan yodgorlik majmui ochildi”¹¹.

Bundan tashqari Imom al-Buxoriyning dunyo madaniyati xazinasiga qoʻshgan ulkan hissasini hisobga olib, uning bashariyatga qoldirgan boy maʼnaviy merosini chuqur oʻrganish va keng targʻib qilish hamda ezgulik va maʼnaviy komillikka yetaklovchi gʻoyalarini vatandoshlarimiz, ayniqsa, farzandlarimiz ongu gʻururiga teran singdirish borish maqsadida Imom Buxoriy majmuasi qoshida yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan Xalqaro ilmiy tadqiqot markazi barpo

etildi.

Bu daholar tomonidan yaratilgan maʼnaviy meros insonlarni doimo yaxshilikka, ezgu ishlarni amalga oshirishga xizmat qilgan. Oqibatda, bu zaminda ilm fan, madaniyat uzluksiz tarzda yuksalgan. Oʻzbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev taʼkidlaganidek: “Haqiqatdan ham, azaldan turli savdo yoʻllari, madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan.... Bu qutlugʻ zamindan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Aduxoliq Gʻijduvoni, Mirsaid Kulol, Xoʻja Orif Revgariy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk mutafakkirlarning nomlari, ularning boy merosi butun sharq va gʻarb olamida mashhurdir. ...Biz mana shunday ulugʻ allomalarimiz bilan, ularni kamolga yetkazgan ona zaminimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Darhaqiqat, oʻtmishda qancha-qancha sinov va qiyinchiliklarga duch kelmasin... Ilm-maʼrifat, madaniyat va sanʼat daryosi hech qachon toʻxtagan emas ...Koʻplab maʼrifat fidoyilarining ibratli hayoti bugungi kunda ham yurtimizda yangi jamiyat barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalash, maʼnaviyatimizni yuksaltirishda bizga beqiyos kuch bagʻishlab kelmoqda”¹².

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash joizki muqaddas dinimiz hamda ajdodlarimizning ibratlarga toʻla hayot yoʻllari, boy ilmiy, maʼnaviy merosini chuqur oʻrganish, ularni keng xalq ommasi, ayniqsa, yoshlarimizni xabardor qilish, nafaqat barkamol avlod tarbiyasi, balki yurt tinchligi, xalq farovonligi yoʻlida amalga oshirilgan xayrli ishlardan hisoblanishi shubhasiz. Bizning boy maʼnaviy merosimiz xalqimizni pokizalikka, ilmiy, imonli, eʼtiqodli, sof vijdonli va insofli boʻlishga daʼvat etgan. Ajdodlarimizning axloq-odob va taʼlim-tarbiyaga oid pand-nasihatlar va oʻgitlari xalqimizni, ayniqsa yosh avlodni illatli va qabih yoʻllardan qaytarishda, shubhasiz, oʻz ijobiy taʼsirini koʻrsatadi, albatta.

¹⁰ Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. – Тошкент: “Фан”, 199.

¹¹ Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. I-том. -Т.: “Шарқ”, 2016. Б. 281-282.Б. 108.

¹² Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни майд ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. Б. 145-146.